



MAKTAB DARSLIKLARIDA “OT” OBRAZINING BERILISHI

O'skanova Rayxona Akmal qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti, O'zbek tili va
adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

rayxonaoskanova8@gmail.com +998930585838

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18217592>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-dekabr 2025 yil

Ma'qullandi: 2-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 12-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

badiiy obraz, ot obrazi, adabiyot darsliklari, milliylik, xalq dostonlari, estetik tarbiya, o'quvchi tafakkuri.

ABSTRACT

Mazkur maqolada maktab adabiyot darsliklarida “ot” obrazining badiiy va tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, 5- va 11-sinf adabiyot darsliklarida keltirilgan badiiy matnlar misolida ot obrazining milliylikni singdirish, o'quvchilarda estetik tafakkur va badiiy obrazni anglash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, “badiiy obraz” tushunchasining nazariy asoslari ochib berilib, ot obrazining xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotdagi ifodalanish xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda o'quvchilarning ilmiy tafakkurini kengaytirishga, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatishga juda kuchli e'tibor berilmoqda. Shu bilan bir qatorda adabiy nazariy tushunchalarni o'quvchilarga berib, ularning bilimlarini kengaytirishga urg'u berib kelmoqda. Barcha berilgan tushunchalar o'quvchilar yoshi va qabul qilishini hisobga olgan holda berilgan.

Berilgan tushunchalardan “obraz” tushunchasiga e'tiborimizni qaratsak. Obraz termini rus tilidan olingan bo'lib, o'zbekcha tarjimada “aks” degan ma'noni anglatadi. Masalan, kishining oynadagi aksiga nisbatan ham “obraz” deb aytiladi. Biroq, bilasizki, so'zning lug'aviy ma'nosi bilan istilohiy ma'nosi farqlanadi: lug'aviy ma'no bilan istilohiy ma'no orasida tutash nuqtalar bo'lsa-da, mutaxassis istiloh ostida konkret ma'noni tushunmog'i lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, biz “obraz” deganda adabiyot va san'atning tafakkur shakli bo'lmish badiiy obrazni nazarda tutamiz.

“Badiiy obraz” adabiyotshunoslikda keng qo'llanadigan terminlardan biridir. “Badiiy” arabcha so'z bo'lsa, “obraz” slavyan tillariga xos so'zdir. Maks Fasmerning “Rus tilining etimologik lug'ati”da “obraz” “rzt” so'zidan yasalgani qayd qilinsa, Vladimir Dalning “Rus tilining izohli lug'ati”da “obraz” “razit” so'zidan hosil bo'lgani ta'kidlanadi. “Rzt”, “obrezat” so'zlari “kesmoq, qirqmoq, yo'nmoq, chizmoq” ma'nosini bildirsa, “razit”, “obrazit” so'zlari “paydo qilmoq, biror narsaning shaklini yaratmoq” ma'nosini anglatadi. Bundan “obraz” so'zi asosida “razit”, “obrazit” fe'li turishi ayonlashadi.

Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa v.h.) badiiy asardagi aksi. Biroq badiiy obraz o'sha borliqning oddiygina aksi emas, yo'q, u borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksidir. Bu aksda borliqning ko'plab tanish izlarini topasiz, biroq bu endi biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki tamoman yangi mavjudlik — badiiy borliqdir.

Hozirgi darsliklarimizda o'quvchilarga berilgan parchalarga e'tibor beradigan bo'lsak, milliy koloritni berishga, milliylikni singdirishga harakat qilgan. Shunday milliy ruhni beruvchi obrazlardan biri bu “ot” obrazi hisoblanadi. Darslikda berilgan asarlarda to'liq

belmasada, ma'lum bir ma'noda yondashilgan. 5-sinf darslida 2024-yil nashr etilgan darslikda "Uch og'a-ini botirlar" ertagi berilgan. Ushbu ertakda ota o'z o'g'illariga yo'l hozirliklarini ko'rib qo'ygani aytib o'tiladi o'shanda uch ot nomini sanab o'tadi bu otlar: qora toy, saman toy va ko'k toy nomlari sanab o'tiladi. Nega aynan ot emas toy deb berilganiga diqqatimizni qaratsak, chunki 5-sinf o'quvchisi hali ot minib yurishni to'g'ri qabul qila olmaydi. Shu sababdan otning bolasi toy deb berilgan. Yuqorida nomlari sanab o'tilgan toylar zotdor otlar avlodiga mansub bo'lib badiiy adabiyotimizda saman ot, qora ot deb nomlari keltiriladi. Bu obrazni berish orqali o'quvchilarga yurtimizdan azaldan foydalanib kelinadigan ko'pkari o'yinlari haqida ma'lumotlar berib o'tishni mualliflar o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygan. Milliylik o'quvchilarimizga kichik yoshliklaridan oilad singdirilishi lozim. Afsuski, bugungi texnologiya asriga kelib farzandlarimiz ko'plab tarixiy odatlarimizdan bexabar qolmoqda. Biz bunga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Bugun bu avlodni milliy ruhsiz, vatanga muhabbatsiz qilib tarbiyalasak ertaga barcha avlodlarni boy berib qo'yishimizga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas.

6- va 7-sinf adabiyot darsliklarimizda ot obrazi kiritilgan asarlarga duch kelmadik. Bunday asarlarning berilmasliga kitob mualliflarining o'ziga yarasha sabablari bor bo'lsa kerak. Ot obrazi ko'proq xalq dostonlarida uchraydi. O'zbek adabiyotida ham bu obrazga murojaat qilgan ijodkorlar ham uchraydi. Shunday ijodlardan biri Tog'ay Murod hisoblanadi. "Ot kishnagan oqshom" qissasi bilan otning insonlarga bo'lgan mehr-muhabbati, insonning otga bo'lgan mehrini yorqin aks ettirgan.

2025-yilda nashrdan chiqqan 8-sinf adabiyot darsligimizda xalq dostonlaridan biri bo'lmish "Ravshan" dostoni kiritilgan. Ushbu dostonida ot obrazi berilgan Ravshanning oti "Jiyronqush" va Hasanxonning oti "G'irko'k" otlari keltirilgan. Jiyronqushga dostonida shunday ta'rif berilgan "to'rt oyog'i teng tushgan, biqini yoziq keng tushgan, qarchig'ayning havosi tekkan". Bu bilan otni qanday ekanligini ta'riflab keltirgan. *To'rt oyog'i teng tushgan* iborasi gavdasi mutanosib, oyoqlari barobar, to'g'ri va baquvvat, yugurishda muvozanatni yo'qotmaydigan, bardoshli ekanini bildiradi. Bu otning uzoq masofaga chopishga, jang yoki safarga yaroqli ekaniga ishora. *Biqini yoziq keng tushgan* iborasi esa otning orqa va yon mushaklari rivojlanganini, kuchli turtki berib yugurish qobiliyatini, yuk ko'tarishga, chavandozni uzoq olib yurishga mosligini anglatadi. Xalq tilida biqini keng ot — quvvatli va bardoshli ot hisoblangan. "Qarchig'ayning havosi tekkan" bu metaforik (ko'chma ma'nodagi) ta'rif bo'lib: qarchig'ay — tezlik, chaqqonlik, hushyorlik timsoli, "havosi tekkan" — go'yo otga qarchig'ayning ruhi, uchuvchanligi singgandek tasvirlanadi. Bu otning: juda tezkor, o'tkir sezgili, to'satdan harakatga tayyor ekanini ifodalaydi. Yuqoridagi ta'rif orqali Jiyronqushni jismonan mukammal, ruhiy jihatdan jo'shqin, xalqona ideal ot obrazi sifatida ta'riflagan. Bu orqali otni oddiy hayvon emas, balki qahramonning sodiq hamrohi va kuch-qudrat timsoli sifatida ko'rsatadi.

Ushbu dostonida keltirilgan G'irko'k oti aslida Go'ro'g'liga tegishli bo'lib Hasanxon minib ketishga majbur bo'ladi. G'irko'k ham yuqorida tarifi berilgan Jiyronqush singari baquvvat, yugurishda hammani ortda qoldiradigan bir tulpor bo'ladi. uning ovozi butun dunyoni tutib ketgan. Hamma ham shunday bo'lsa shunday tulpori bo'lishini orzu qilib yurgan bo'ladi. Ammo dostonning bir o'rnida shunday jumla keltiriladiki, odamni o'ylantirib qo'yadi. Aynoq kal tomonidan aytilgan "G'irko'k ot - ovozi olamni tutib yurgan ot; bu ot Ishrat devonaning otidan ham yomon, o'libdimi shunday bo'lsa", nima uchun bunday fikrlar aytilganiga bir to'xtalib o'tsak. Hasan mard Chambildan Shirvon yurtigacha o'n to'qqiz kunda otini hech bir yerda sahrolarda, cho'llarda to'xtatmasdan uchirib keldi. Bu tulpor ham pand bermasdan Hasan mardni aytgan Ravshanni qatl qilishdan bir kun oldin ya'ni qirq kun berilgan muhlat tugashidan avval yetkazib keldi. O'lis masofadagi yo'lni bosib o'tishning o'zi bo'lmaydi. Shundan bo'lsa kerakki, Aynoq kal ilk bor tulporni ko'rganda Ishrat devonaning otidan ham yomon deya ta'rif bergan.

Keyingi darsligimizda “Alpomish” dostoni berilgan. Ushbu xalq dostonida ham ot obraziga to'xtalib o'tilgan. Bunda Alpomishning oti Boychibor bo'ladi. Bu tulporni sinlagan Ko'sa sinchidan alplar:

- O'zbekning oti qanday ekan deya so'radi:
- O'zbekning oti anday ekan deya javob beradi Ko'sa sinchi.

Bundan ko'rish mumkinki, Alpomishning oti ham anchagina baquvvat, sinalgan ot bo'lgan. Bekorga Alpomishning eng sodiq yo'ldoshi, jangda va safarda ajralmas hamrohi, tezligi, bardoshi va aql-zakovati bilan ajralib turadigan afsonaviy tulpor sifatida tasvirlanmagan. Insonning sodiq hayvon do'stlaridan biri, albatta, ot bo'ladi. Alpomishga ham oti har qadamda hamrohlik qiladi. Uning barcha kunlarida yonida bo'lib berilgan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishiga sababchi bo'ladi.

Bizning yuqori sinflarida “G'o'ro'g'lining tug'ilishi” dostoni keltirilgan. Ushbu dostonida G'irko'k oti keltirilgan. Bu tulpor nomi shunchalik mashhur bo'lganki, buni so'z bilan ta'riflab berish qiyin. Yuqorida ham bu ot ta'rifiga to'xtalib o'tgan edik.

Ot obrazi maktab adabiyot darsliklarida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, estetik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, darsliklarda bu obrazga yanada kengroq o'rin berish maqsadga muvofiqdir. Ot obrazi qadimdan xalqimizning sevimli obrazlaridan biri bo'lib kelgan. Asosan xalq dostonlarida, ertaklarida uchratishimiz mumkin. Ammo darsliklarimizda bu obrazni chuqurroq tahlil qilishimiz lozim. O'quvchilarga milliy koloritni beradigan asarlarni o'qitishimiz bu orqali milliy ruhni siningdirishga harakat qilishimiz kerak. Bekorga biz Tog'ay Murod asarlarida milliylik deya o'rganmaymiz, buni o'rganish va o'rgatish orqali hududlarga tegishli bo'lgan milliylikni ko'rishimiz mumkin. Otga qiziquvchilar hozir ham yo'q emas. Yurtimizda har yili ko'plab ko'pkari o'yinlari, ko'pkari to'ylari o'tkaziladi. Bundan tashqari ot musobaqalari ham o'tkazilib turadi. Yoshlarimizni milliylikka, qadimiy urf-odat va an'analarga bo'lgan qiziqishini birgina ot obrazi bilan ham shakllantirishimiz mumkin. Bu albatta biz o'qituvchilarning zimmasidagi bir vazifa hisoblanadi. Buni Sharaf bilan bajara olishimizga hech shubham yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2018.
2. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2024.
4. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
5. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
6. Adabiyot. 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2025.
7. Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2025.
8. Arastu. *Poetika*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1980.
9. Dal V. *Tolkoviy slovar jivogo velikorusskogo yazika*. – Moskva: Russkiy yazik nashriyoti, 1989.
10. Fasmer M. *Etimologicheskiy slovar russkogo yazika*. – Moskva: Progress nashriyoti, 1986.
11. Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
12. Tog'ay Murod. *Ot kishnagan oqshom*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot